IJTIMOIY SOHADA DAVLAT XARAJATLARINI SARFLANISHINING MAZMUNI

Xojiyev Dilyorbek Ilyosxonovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Qabul qilindi: 09.02.2026
Ko‘rib chiqildi: 10.02.2026
Tasdiqlandi: 11.02.2026

Ijtimoiy soha iqtisodiy munosabatlar tizimida moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning ajralmas qismi, aholining o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy, moddiy-maishiy yehtiyojlarini qondirishga, turmush sharoiti va farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim soha bo‘lib, u iqtisodiyotning ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, jismoniy tarbiya va sport, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, uy-joy kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy ta’minot, savdo va umumiy ovqatlanish, yo‘lovchi transporti, ijtimoiy turizm va boshqa ko‘plab tarmoqlarini o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimida har bir mehnat turi aniq bir mahsulotni yoki uning ba’zi bir qismini yaratishga qaratiladi. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda xizmatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri insonga uning farovonligiga qaratiladi.

Tarixan ijtimoiy xizmatlar moddiy sohadan keyin paydo bo‘lgan va xizmatlar ko‘lami tor doirada, ulardan ayrim shaxslargina foydalana olgan. Ularga nisbatan aholida yehtiyoj kam bo‘lgan.

Sanoatning rivojlanishi bilan ijtimoiy xizmatlar ko‘lami kengayib bordi va o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab “Aholining turmush darajasi”, “Inson taraqqiyoti indeksi”, “Insoniy kapital” nazariyalarining paydo bo‘lishi bilan chambarchas ravishda ijtimoiy xizmatlar ixtisoslashib alohida iqtisodiy yo‘nalish sifatida o‘rganila boshlandi. Jumladan, ijtimoiy soha iqtisodiyoti ilmiy yo‘nalish sifatida XX asrning 50-60 yillaridagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni bog‘lash uchun muvaffaqiyatli harakat qilgan T.Parsons va N.Smelser sotsiolog-olimlar nomlari bilan bevosita bog‘liqdir (Saidov K.S, Siytmuratov R.A. va boshqalar Sotsial iqtisodiyot -T.: “O’zbekiston”, 2006 -B. 41.).

Ijtimoiy xizmatlar sohasi insonning shaxs siftida shakllanishi va ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, aholining turmush darajasi, mehnatning mazmuni va shart-sharoiti, yashash muhiti, bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan faoliyat hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy nuqtai nazardan yemas, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan qarash ham muhim ahamiyatga yega.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi bir vaqtning o‘zida mehnatga yaroqli bo‘lgan aholining bir qismi band bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohasi, ikkinchi tarafdan yesa jamiyatning deyarli barcha qatlami qatnashadigan iste’mol sohasidir. Shuning uchun ham sohani o‘rganayotganda bu ikkala jihatni bir-biridan ajratmaslik maqsadga muvofiqdir.

Keyingi vaqtlarda chop yetilayotgan ko‘pgina iqtisodiy adabiyotlarda va lug‘atlarda ijtimoiy sohaning nazariy asosi faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib ta’riflanmoqda. Jumladan, G.YE.Slezingerning fikricha, ijtimoiy sohaning predmeti inson va uning yehtiyojidan kelib chiqadigan, davlat boshqaruvi ilmiy, o‘quv, mehnat va xo‘jalik faoliyatidan iborat jabhalarni namoyon qiladi (Slezinger G.E. Sotsialnaya ekonomika – M.: Delo i servis, 2001. - S. 9.). Yoki V.G. Ignatov va boshqalar tomonidan yozilgan o‘quv qo‘llanmada ta’riflanishicha, ijtimoiy soha iqtisodiy kategoriya sifatida insonlarning ijtimoiy va ma’naviy yehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy munosabat jabhalarini o‘zida namoyon qiladi (Ignatov V.G. i dr. Ekonomika sotsialnoy sferi. M.: Mart, 2005. - S.11.). B.A.Rayzberg va boshqalar hamkorligidagi tayyorlangan lug‘atda, insonlarning yehtiyoji, farovonligini, turmush darajasi va shaklini aniqlovchi hamda bevosita ular bilan bog‘langan tashkilotlar, korxonalar, tarmoqlar yig‘indisi ijtimoiy sohaligi ta’riflanadi (Rayzberg B.A., Lozovskiy L.SH., Starodybseva YE.B. Sovremenniy ekonomicheskiy slovar – 30-ye izd. Perereb. i dop. – M.: INFRA, 2001. – S.37).

O‘zbekistonlik olimlardan N.To‘xliyev rahbarligida yozilgan darslikda, aholining turmush sharoiti, hayot kechirishi va turmush darajasini yaxshilash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sohalar ijtimoiy sohalar hisoblanadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalari, uy-joy kommunal xo‘jaligi, madaniyat va san’at, sport va boshqa ijtimoiy infratuzilma sohalari ijtimoiy sohalar hisoblanadi. Axborot va telekommunikatsiya, yo‘lovchi transporti, aholiga pulli xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar ham ijtimoiy ahamiyatga yega xizmatlar ko‘rsatuvchi tarmoqlarga kirishi keltiriladi (To’xliev N. va boshqalar. O’zbekiston iqtisodiyyoti T.: “O’zbekiston”, 2016. -B. 443.).

X.Abulqosimov va O.Xamrayevlarning o‘quv qo‘llanmasiga ko‘ra, “Ijtimoiy soha – bu aholini turmush darajasi, hayot tarzi va ularning farovonligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlar, korxonalar majmuidir. U o‘zida xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini (ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta’minot, uy-joy kommunal xizmatlari, yo‘lovchi tashish transportlari, aloqa) mujassamlashtiradi” (Abulqosimov X.Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish-T.: “Iqt-Moliya”, 2014.-B.170).

Yuz yil oldin qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning yetakchi sohasi hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda ijtimoiy soha ijtimoiy ne’matlar yaratib, insonning rivojlanishi, turmush farovonligini ta’minlash, ijtimoiy adolatlilikni o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga va turli ma’naviy, madaniy, ma’rifiy yehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi tarmoqlar majmuini tashkil qilib,

iqtisodiyotni rag‘batlantirish inson salohiyatini saqlash va rivojlantirish, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini saqlash va ta’minlash kabi muhim vazifalarni bajarishi bilan yetakchilik qilmoqda. Shuning uchun ham u an’anaviy tarzda davlat tomonidan ko‘prok himoya qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyotining ta’siri ostida ijtimoiy xizmatlar sohasi tez rivojlanib bormoqda. Ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti hamda aholi turmush darajasining yeng muhim ko‘rsatgichlaridan biriga aylanmoqda. Chunki aholi turmush darajasini faqat daromadlarning o‘sishi va sifatli iste’mol tovarlari bilan ta’minlanganligi darajasi bilan belgilab bo‘lmaydi. Aholi turmush darajasi ma’naviy va madaniy yehtiyojlarini qondirishda har xil turdagi sifatli xizmatlardan foydalanish, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil qilish, maroqli dam olish kabi jihatlar bilan ham belgilanadi.

“Ijtimoiy soha” yoki “ijtimoiy himoya” so‘z birikmalari iqtisodiy, siyosiy va davlatshunoslikka oid atamalar hisoblanadi. “Ijtimoiy soha” ko‘pchilikning manfaatlariga tegishli sohani anglatadi. “Ko‘pchilikni himoya qilish” degan tushunchani ham bildiradi, tor ma’noda, aholining muhtoj va nochor toifalarini moddiy va ma’naviy himoya qilishni nazarda tutadi. “Ijtimoiy” so‘zi arabcha “jam” dan yasalgan bo‘lib, ko‘pchilik, to‘planish degan ma’nolarda ishlatiladi. “Jamiyatga, ya’ni ko‘pchilikka tegishli” degan ma’noni anglatadi.

Ijtimoiy sohaga ye’tiborning ko‘lamini, so‘nggi yillarda bu borada qabul qilinayotgan qonunosti hujjatlarining muhimlarini yeslash orqali bilish mumkin:

- O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun belgilab berilgan yo‘nalishlar;
- yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar;
- yurtimiz fuqarolari uchun arzon uy-joylar barpo yetilishi;
- mehnat bilan bandligini ta’minlash uchun qilinayotgan ishlar;
- ikki sotixli namunali uy-joylar, shuningdek, ikki-uch xonali ko‘p qavatli uylarning qurilishi;
- ta’limni rivojlantirish uchun milliy modellarning joriy yetilishi;
- sport va turizmga ye’tiborning kuchayishi;
- imtiyozli kreditlarning joriy yetilishi va h.k.

Ijtimoiy sohaning o‘ziga xos qonuniyatlari mavjud, ular quyidagilarda aks yetgan:

1. Ijtimoiy sohada qiymat tushunchasi bo‘lmaydi, chunki qiymat yaratish uchun moddiy ne’matlar barpo yetilmaydi, aksincha xizmat ko‘rsatiladi.
2. Xizmat ko‘rsatish sohalari mehnati moddiy ishlab chiqarish sohalari mehnatidan alohida tomonlari bilan farq qiladi, ya’ni bu soha xodimlari alohida odamlar bilan muloqotda bo‘ladilar, bu yesa xodimlardan yuksak sifatli kasb mahoratini talab yetadi

3. Ijtimoiy sohani joylashtirishda tabiat omili moddiy ishlab chiqarish sohalarini joylashtirishdagi kabi ahamiyatga yega yemas. Xizmat ko‘rsatish sohalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari moddiy ishlab chiqarish mehnat vositalariga tashqi ko‘rinishdan o‘xshashi mumkin. Iqtisodiy mohiyati yesa bir- biriga o‘xshamaydigan, chunki moddiy ishlab chiqarishda mehnat vositalari o‘z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekin o‘tkaza borib amortizatsiya ajratmasi sifatida o‘z qiymatini tiklasa, ijtimoiy sohada iste’mol natijasida mehnat vositalari o‘z qiymatini yo‘qotadi va moddiy ishlab chiqarish sohalari tomonidan yaratilgan milliy daromad hisobiga ular qayta tiklanadi

4. Ijtimoiy sohada xizmat ko‘rsatish sohalari mehnatining faqat oz miqdori mexanizatsiyalashtiriladi va avtomatlashtiradi. Ijtimoiy sohada mehnat hajmini kengaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish asosan mehnat resurslari sonini ko‘paytirish mehnat hamda boshqarishni tashkil qilishning taraqqiylashgan usullarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

5. Ijtimoiy sohada xizmat iste’mol predmeti hisoblanadi. Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohalarining xizmatida bepul bo‘lganlari ham bor. Respublikamizda ijtimoiy sohada ma’lum xizmat turlari pullik ko‘rinishda amalga oshirilmoqda, lekin bunday xizmat ko‘rsatishda ham ma’lum doiradagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifadagi odamlarga ma’lum yengilliklar berilmoqda.

6. Ijtimoiy sohada pirovard natija jamiyat yoki shaxsning alohida yehtiyojini qondirish bilan o‘lchanadi. Ijtimoiy soha mehnat faoliyati ana shu yo‘nalishga qaratilgan. Lekin, mehnat jarayonining yo‘nalishi va maqsadini aniqlash ijtimoiy soha xodimlarining mehnat natijalariga to‘liq bog‘liq yemas. Masalan, inson salomatligi faqat tibbiyot xodimlari mehnat faoliyatiga yemas, balki genetik omillar, mehnat sharoitlari va yashash manbalariga ham bog‘liq. O‘quvchining bilim darajasi faqat pedagog mehnatiga yemas, balki boshqa shartlarga, ya’ni o‘quvchining salohiyatiga ham bog‘liq. Shunday qilib xizmat ko‘rsatish xodimlari mehnatining pirovard natijasi to‘liq shakllanmay qolish yehtimoli bo‘lishi natijaning yaxshi bo‘lishiga ular o‘z hissalarini qo‘shadilar.

7. Ijtimoiy sohaning faoliyat yuritishi ikki hil usulda, ya’ni budjet hamda xo‘jalik hisobidan moliyalashtariladi.

8. Xizmat ko‘rsatish sohalari xodimlariga ish haqi to‘lashni tashkil qilish o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xodimlarning ish haqi manbalari bu sohadan tashqari shakllanadi: moddiy ishlab chiqarish xodimlari yaratgan milliy daromad hisobiga ijtimoiy soha xodimlari ish haqlari milliy daromadning turli qismlarida tashkil topadi, demakdir.



1-rasm. Ijtimoiy soha tarkibiy qismlari

Manba: Xashimov P.Z. Ekonomika sosialnoy sferi. -T.: «Yniversitet», 2002. - S. 26.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti izchil, barqaror va jadal o‘sayotgan jahondagi juda kam sonli mamlakatlar safidan mustahkam o‘rin olayotganligini faxr bilan ye’tirof yetish mumkin. Ijtimoiy, madaniy sohalarda mamlakatimiz yerishayotgan ulkan yutuqlar nufuzli halqaro tashkilot va yekspertlar tomonidan yuksak baholanmoqda.

Axborotlar almashinuvi birinchi o‘ringa chiqayotgan yangi yetapda ijtimoiy xizmatlarning ahamiyati yanada ortmoqda va mazmunan boyib, mantiqan inson faoliyatining barcha turlari bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilingan va davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Oylik va maoshlar, pensiya, stipendiya, va ijtimoiy nafaqalarning bosqichma-bosqich oshirib borilishi.
2. Aholining ish bilan bandligini oshirishning samarali usullarini yaratish.
3. Aholini arzon va zamonaviy uy-joylar bilan ta’minlash;.
4. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash.
5. Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish.
6. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish.
7. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish.
8. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Yendigi vazifa ijtimoiy xizmatlarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil yetish va izchil rivojlantirish hamda istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olishdan iborat. Ushbu vazifalarning bajarilishi kelgusida aholining

ijtimoiy xizmatlardan samarali foydalanishga va yangi zamonaviy xizmatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

XXI asr intelektual asri deb ye’tirof yetilishi ijtimoiy sohada tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Bu o‘z navbatida ijtimoiy xizmatlar va tadbirlar rivojlanishi yevolyutsiyasini o‘rganishni va shular asosida bugungi ijtimoiy majmuani yaratish maqsadga muvofiq bo‘lmoqda.